



SAKKOKIY IJODIDA MIRZO ULUG‘BEK MADHI

Malikova Zulayxo Baxromjon qizi,
ToshDO‘TAU magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207369>

Annotatsiya: Maqolada Sakkokiyning Mirzo Ulug‘bekni taxtga chiqishi munosabati bilan yozilgan qasidasi tahlil qilingan. Qasidada Mirzo Ulug‘bekning adolatli va himmatli shoh ekanligi, yetuk mutafakkir, astronomik olim ekanligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Sakkokiy, Mirzo Ulug‘bek, rasadxona, astronomiya, qasida, No‘shiravoni odil, Qorun, Sulaymon va Muso payg‘ambar.

Mirzo Ulug‘bek- Temuriylar sulolasining mashhur vakillaridan biri bo‘lib, uning ota-bobolari o‘z zamonlarida buyuk hukmdorlar bo‘lishgan. Mirzo Ulug‘bek o‘z davrining odil podshohi bo‘libgina qolmay, zehni o‘tkir olim, zamonasi uchun ilm-fan yo‘lboshchisi, yorqin mayog‘i edi. Unda “ilm va podshohlikni barobar yuritgan hukmdor” timsolini ko‘rish mumkin. Chunki Mirzo Ulug‘bek hukmdorlik faoliyatini olib borish bilan birga, ilmiy faoliyatida ham ko‘plab yutuqlarga erishgan. Uning eng mashhur ishlari esa astronomiya sohasida bo‘lib, buning yorqin namunasi Ulug‘bek rasadxonasi hisoblanadi. Ushbu rasadxonada ko‘plab olimlar minglab yulduzlarning joylashuvini o‘rganganlar va turli astronomik jadvallar yaratganlar. U tarix, astronomiya, musiqa, she‘riyat, matematika bo‘yicha yetuk olim edi. O‘zi qurdirgan madrasalarda shaxsan o‘zi talabalar uchun ma‘ruzalar o‘qigan, ilm ulashgan.

Mirzo Ulug‘bek faqat dunyoviy ilmlarnigina emas, balki diniy ilmlarni ham puxta egallagan podshoh edi. U yetti qiroat bilan Qur‘oni karimni o‘qiy oladigan inson edi. Bunday ilmni egallashida albatta ustozlarining o‘rni alohida ahamiyat kasb etgan. Jumladan, Qozizoda Rumiy, Jamshid al-Koshi, Ali Qushchi kabi ilmli va sadoqatli insonlarning saboqlari va yordamlarini ta‘kidlab o‘tish joiz.

Bugungi kungacha Mirzo Ulug‘bek haqida ko‘plab tadqiqotlar olib borildi. Mirzo Ulug‘bekning ilmiy merosini o‘rganish XVII asrdan boshlangan. Bu borada Jon Grivs, Tomos Xayd, Frensis Beyli, L.Sediyo, V.Bartold, V.Vyatkin, E.Knobl, T.N.Qoriniyoziy, G‘.Jalolov va boshqa olimlarning tadqiqotlarini ko‘rsatish mumkin. Mazkur tadqiqotlarda Mirzo Ulug‘bek ijodi, faoliyati turli nuqtayi nazardan o‘rganildi [1:274]. Xususan, O‘zbekistonda ham Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlangan asarlar yaratildi. Masalan, M.Shayxzoda “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi, X.Davron



“Padarkush” she’ri, O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” kabi asarlar Mirzo Ulug‘bekning shaxsiyatini ochib berish uchun muhim o‘rin egalladi.

Mirzo Ulug‘bek uchun o‘z davrining ma’lum va mashhur shoirlari ham qasidalar bitgan. Uning shoh va insoniylik xislatlarini tarannum etganlar. Ushbu o‘rinda o‘qirmanda qasida qanday janrligi haqida savol tug‘ilishi tabiiy.

Qasida - 15-20 baytdan kam bo‘lmagan madh, marsiya yoki didaktik mazmunli she’r janri [2:732]. Tarixdan ma’lumki, qasida Sharq va arab she’riyatining o‘ziga xos, katta adabiy janri hisoblanadi. Jahon adabiyotida esa dastavval Yunonistonda paydo bo‘lib, Sharq adabiyotidagi madhiyaga o‘xshab maqtovlarga to‘la, tantanavor xor qo‘shig‘iga nisbatan aytilgan. Dastavval ushbu janrdan saroy shoirlari shohlarni ulug‘lash, madh etish uchun foydalangan. Shuningdek, qasidada muhim tarixiy shaxslar yoki tarixiy voqealar ham ifoda etilgan. Shu bilan birga, klassik adabiyotda tabiat lavhasi, cholg‘u asboblari va boshqalarga bag‘ishlab ham qasidalar yozilgan. Chunonchi, Rudakiy (X asr) qasidalari shunday qasidalar sirasiga kiradi. Qasidaning baytlari miqdori cheklanmaydi. Qasidaning umumiy hajmi 15-20 baytdan kam bo‘lmaydi. Mumtoz adabiyotimizdagi qasidalarning asosiy qismi aruz vaznida bitilgan.

Qofiyalanishi: a-a, b-a d-a yoki a-a, b-b d-d e-e. [5:34].

Kompozitsiyasi g‘azalga nisbatan murakkab bo‘lib, nasib (yoki tashbib) deb ataluvchi lirik muqaddima, gurezgoh (qochish joyi; nasibdan asosiy qism — madhga o‘tish vazifasini bajaruvchi bayt yoki baytlar), madh (maqto) va mamduh (maqtalayotgan shaxs haqqiga duo) va matlabni o‘z ichiga oluvchi xulosa qismlardan iborat.

Qasida mavzusiga ko‘ra ham turlicha bo‘ladi, ya’ni madh, hajv, falsafiy, marsiya, munojot kabi. Turkiy adabiyotdagi ilk qasida “Devonu lug‘otit-turk” da “qo‘nug‘” ko‘rinishida uchrasa, o‘zbek tilining rivoji uchun hissa qo‘shgan Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarida ham muhim ma’lumotlar berilgan: “Qasidaning aqalli yigirma yetti bo‘lur yo andin o‘ksukrak va aksari muayyan ermas. Har necha qofiya dast bersa ayturlar. Va har ne maqsud bo‘lsa, bayonga keltururlar.” [6:12]. Va Amir Muizziy, Rashididdin Vatvot, Xoqoniy kabi shoirlar ijodidan namunalar keltirgan.

Jumladan, Alisher Navoiy e’tirofiga sazovor bo‘lgan Sakkokiy ham hukmdorlardan Xalil Sulton nomiga bitta qasida, Mirzo Ulug‘bek nomiga to‘rtta qasida, amaldorlardan Xoja Muhammad Porsoga bir qasida, Arslon Xoja Tarxonga to‘rt qasida bag‘ishlagan.



O‘ziga xos badiiy mahoratga ega qasidago‘y shoir Sakkokiy Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlangan qasidalarida Mirzo Ulug‘bekni ulug‘lagan, ilmi bo‘lish bilan birga yaxshi fazilatlarga egaligini ta‘kidlab o‘tgan. Jumladan, “Ulug‘bek madhi” deb nomlanuvchi qasidasi Mirzo Ulug‘bekning taxtga chiqishi sharafiga yozilgan.

Sakkokiy ushbu qasidasida Mirzo Ulug‘bekni Sulaymon va Muso payg‘ambar, shoh No‘shiravon va Shohrux Mirzoga o‘xshashi haqida fikrlar keltirgan:

Jahondin ahraman ketib musaxxar bo‘lg‘oy insu jon,

Kim O‘sh taxtini yel ko‘tarub Sulaymoni zamon keldi. [3:65].

Ya‘ni olamdan yovuz dev ketib, barcha jonlar- odamlar va jinlar ozod bo‘ladi. Chunki shamol taxtda Sulaymonni keltirdi. Bizga ma‘lumki, Sulaymon payg‘ambarga barcha jonzotlar- insonlar, hayvonlar, qushlar, jinlar hattoki shamol ham bo‘ysundirilgan. Sulaymon alayhissalom ham payg‘ambar, ham podshoh bo‘lganlar. Hattoki, uning zamonida barcha yomon devlar ham kishanlanib, yomon ishlar qilishdan tiyilganlar.

Boyindi taxtining qadri, o‘zung toj ko‘kka toshlodi,

Adolat bog‘i sabz o‘ldi, chu No‘shiniravon keldi.

Tarixdan ma‘lumki, No‘shiravon adolatli shoh ekanligi bilan nom chiqargan podshohlardan biri bo‘lgan. Xalq No‘shiravoni odil deya ulug‘lagan. Taxtning qadri ko‘tarildi, ya‘ni taxt o‘z egasini topdi. Adolat bog‘i gullab-yashnadi, chunki No‘shiravon keldi, yoki Nekim No‘shiniravon adl ishi ichra qildi taqdirin,

Qamug‘ing‘a aning bir-bir sharif zoti zamon keldi.

Ya‘ni No‘shiravon kabi adolatli Mirzo Ulug‘bek barcha-barcha ishini adolat bilan yuritadi, endi barchaga uning kafili – xalqning javobgarligini o‘z bo‘yniga olgan shaxs keldi.

Raiyat qo‘y erur, sulton anga cho‘ponu yo bo‘ri,

Bo‘ri o‘lgoyu qo‘y ting‘oy, chu Musotek shubon keldi.

Xalqni qo‘y, podshoh esa xalqqa cho‘pon yoki bo‘ri sifatida tasvirlanishidan anglashiladiki, podshoh odil bo‘lsa xalqni cho‘pon misoli himoya qiladi va qo‘riqlaydi. Aksincha, o‘z nafsini o‘ylovchi zolim bo‘ri bo‘lsa, xalq qon qaqshaydi, bor-budidan ayriladi. Bo‘ri o‘ldi, endi qo‘ylar ozod bo‘ldi. Chunki Muso alayhissalomdek shubon-cho‘pon [2:702] keldi. Bizga ma‘lumki, barcha payg‘ambarlar ma‘lum bir kasb-hunarga ega bo‘lganlar. Masalan, Odam alayhissalom dehqon bo‘lgan. Nuh alayhissalom kema yasashni o‘rgangan bo‘lsa, Dovud alayhissalom mohir temirchi bo‘lib, mustahkam sovutlar yasagan. Muso alayhissalom sakson yil qo‘y boqqanlar, payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



alayhi vasallam ham payg‘ambar bo‘lmasliklaridan avval qo‘y boqqan va tijorat bilan shug‘ullangan.

Bu yerda Muso payg‘ambarning qo‘y boqqanligi misolida saltanatga uningdek odil inson kelganligiga ishora qilinmoqda.

Sevunsun xisravi oliy guhar sulton Ulug‘bekkim,
Shahanshoh Shohruhbechtek shahi xisrav nishon keldi.

Podshohlikdagilar, barcha xalq xursand bo‘lsin, qimmatbaho toshdek beqiyos podshoh- Ulug‘bek taxtga keldi. Chunki taxtga shohlarning shohi - Shohruh Mirzodek shohga o‘xshagan shoh keldi.

Qachon kayvon bikin onlar saroyu toqi oliyg‘a,
Tilosa posbonliqni shahi Hinduston keldi.

Osmonning soqchiligini Zuhul yulduzi istasa ham bo‘ladi, chunki dunyoga Hindiston shohi keldi.

Gadolar royigon topg‘oy zaruriy moli Qorunni,
Yadi bayzo bikin ilging jahong‘a zarfishon keldi.

Musulmonlarning muqaddas kitobi bo‘lgan Qur‘oni karimda Qorun qissasi zikr qilingan bo‘lib, undan kelgusi avlodlarning ibrat olishlari buyurilgan. Qorun Muso alayhissalom qavmidan bo‘lgan nihoyatda boy-badavlat, cheksiz mol-mulkka ega bo‘lgan bir kimsa edi. Alloh taolo unga iymonini imtihon qilish uchun juda katta boylik va mol-mulk ato etgan edi. Uning mol-mulki shu darajada ko‘p ediki, xazinalarining kalitlarini ko‘tarib yurish bir guruh kuchli, baquvvat odamlarga ham og‘irlik qilar edi. Davlatini hammaga ko‘z-ko‘z qilib, qimmatbaho kiyimlar kiyar, boshqalarning hasadi va adovatini qo‘zg‘ashga intilar, ochko‘z va hasis inson ekanligini namoyish qilar edi.

Inson zoti o‘z-o‘zidan bu boyliklarga ega bo‘lib qolmaydi, albatta. Bergan boyligi, kuch-quvvati va farovonligi uchun yaratgan Parvardigoriga shukr qilishi kerak. Ammo Qorun bunga noshukrlik qildi va bu boyliklarni bergan Allohga isyon qildi. “Bularni o‘z mehnatim va iqtidorim orqali qo‘lga kiritganman” degan da’voda kibr va tug‘yonga ketadi. O‘sha vaqtda shunchalik molga egalik uni hovliqtirib yuboradi, boylik ko‘zlarini ko‘r qiladi. Shu sababli o‘z qavmiga bepisandlik va zolimlik qiladi, o‘zligini unutib takabburlik qiladi, ularga zo‘ravonlik bilan munosabatda bo‘ladi. Natijada bu isyonkorligi uchun Allohning qahriga uchraydi, uning o‘zini va to‘plagan barcha boyliklarini yer yutadi. Bu qissa ham odamlarga ibrat bo‘lishi kerak. Barcha insonlar Qorun kabi boylikka ega bo‘lishi mumkin, lekin boyliklariga g‘ururlanib bir yaratiq ekanligini unutib qo‘ymasligi kerak.

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



Qasidada hatto gadolar, tilanchilar tekinga Qorun kabi mol-dunyoga ega bo‘lishligi, sababi esa taxtga qo‘li ochiq, saxiy podshoh- Mirzo Ulug‘bek kelganligiga ishora qilinyapti.

Sakkokiy ushbu qasidasida turli badiiy san’atlardan – talmeh, tashbeh, mubolag‘adan unumli foydalangan, bu esa qasidaning qiymatini oshirishga xizmat qilgan. Barcha qasidalarga xos bo‘lgan xususiyat- madh etish va ta’rif-tavsif berish ushbu qasidada ham kuzatiladi. Sakkokiy qasidaning muqaddimasini taxtga kelgan shaxsni ya’ni Mirzo Ulug‘bekni xaloyiqqa tanishtirish, uning sifatlarini ochiqlash bilan boshlagan. Shuningdek, payg‘ambarlarga, tarixiy shaxslarga murojaat orqali go‘zal badiiy tasvir vositalaridan foydalangan. Ular misolida qorong‘u kunlar ortda qolib, yorug‘, baxtli kunlar boshlanganini ta’kidlagan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Sakkokiyning ushbu qasidasi ba’zi saroy shoirlari kabi maddohlik uchun emas, aksincha Mirzo Ulug‘bekning o‘ziga xos shaxsiy fazilatlarini, ilmiy yetuk va dono shoh ekanligini ko‘rsatib berish uchun yozilgan. Uning taxtga o‘tirishi xalq uchun farovonlik, erkinlik, to‘qchilikka sabab bo‘lgani, nechog‘li muhim hodisaligi qasidada keng yoritib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva M. Adabiy-tarixiy asarlarda kichik janrlar poetikasi. Doktorlik dissertatsiyasi. – Samarqand: 2021. – 274 b.
2. Navoiy asarlari lug‘ati. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. – T.: - 1972.
3. Sakkokiy. Tanlangan asarlar. O‘z SSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. – T.: 1958.
4. Poyon Ravshanov. Temuriylar silsilasi. Yangi asr avlodi. 2017.
5. O.Karimov. Mumtoz she’riyat janrlari. -T.: Namangan nashriyoti. 2015.
6. Shayx Ahmad Taroziy. Funun ul-balog‘a. – T.: Xazina. 1996.